

GEOGRAFIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

R. Jumayeva,

Qashqadaryo VXTXQTMOI

Tabiiy va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallshtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnoliyalari kabilar kiradi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish, avvalo pedagogik jarayonning loyihalashda mujjassam bo'ladi.

O'quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlari. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzluksizligini ta'minlashga va erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat e'tiborini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o'z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Yan Amos Komenskiy, Dmitriy Konstantinovich Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ta'lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o'quv manbalari(DTS va o'quv dasturi, rejasi, darslik, qo'llanmalar saviyasi, shuningdek pedagogning bilish darajasi va pedagogik mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilish, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi, o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida ijobiy samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili-bu ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, o'quvchilar tomonidan

o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta'lim maqsadining muvvafaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich-o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi materiallarni yig'ish va ularning mohiyati bilan tanishib chiqish ularda ilgari surilgan, g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish va yaxlitlashdan iborat. Bu esa mavzu yuzasidan o'quvchilarga batafsil mukammal ma'lumotlarni bera olish, umumiy jarayonni tasavvur etish imkonini beradi.

2-bosqich-O'quv predmetining mavzusi yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash umumiy maqsadni aniq belgilash umumiy maqsad doirasida kichik bo'limlar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lidagi eng muhim vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Bu esa faoliyatni muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda, vaqtdan unumli foydalanish, muammolarni oldini olishga zamin hozirlaydi.

3-bosqich. Ta'lim jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iborat. Bunda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning hajmi belgilab olinadi. O'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi shart-sharoitlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4-bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash amalga oshiriladi. O'quvchilarning ijodiy izlanish faollik erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs-munozalardarga boy bo'lishi ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Shunda o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab

vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

5-bosqichda vaqt hajmi, ya'ni o'quvchilarda muayyan mavzu yuzasidan ma'lum, tushuncha, ko'nikma va malakalarning qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6-bosqichda mashqlar tizimi ishlab chiqiladi.

a) mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan yechilishi lozim bo'lgan mashqlar.

b) darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar.

Ushbu mashqlar bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik boq'liqlik va eng muhimi evolyutsion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7-bosqichda o'quvchilarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi o'quvchilarning mavzu yuzasidan muayyan tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi.

8-bosqich yaratilgan loyihaning ta'lim jarayoniga tadbqiq etilishi ta'lim jarayonining yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan nihoyalanadi.

Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilash yuzasidan hozirda mutaxassislar tomonidan bildirilgan ayrim nuqtai nazarlar quyidagilardan iborat.

-sinfda ishni to'g'ri tashkil qilish va boshqarish;

-o'quv rejalarining turli sharoitlariga moslashganligi;

-yo'riqnomalarning bevosita berilishi;

-maktabda o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olish imkoniyatlarini hamda o'qituvchilarning ijodiy ishlash imkoniyatlarini kengaytirib borish;

Maktabda rag'batlantiruvchan, o'quv muhitini ta'minlash;

-amaliyotda yuqori ko'rsatkichlarga erishish natijasida tasdiqlangan yangiliklarni tezkor tatbiq etish;

-kutilayotgan natijalarga mos bo'lgan pedagogik texnologiyani tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish va muntazam takomillashtirib borish.

Agar o'qituvchining tayyorgarligi ya'ni uning bilimdonligi hamda pedagogik mahorati doimo talab darajasida hamda o'quvchining qiziqishi, diqqatini jamlash va eslab qolishi doimo yuqori darajada bo'lganda edi, ta'lim-tarbiya jarayonida istalgan usuldan foydalanganda ham yuqori natijaga erishish mumkin bo'lar edi. Lekin bu ko'rsatkichlar tez o'zgaruvchan bo'lib, pedagogik jarayonni ana shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda olib borish eng zarur shartlardan hisoblanadi. Aks holda ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Pedagogik texnologiyaning so'zlash jarayonida o'qituvchi faoliyati so'zlash, savol-javob, bahs, munozara, muzokara; ko'rgazmali o'quv jarayonida ko'rsatish, tushuntirish, savol-javob, mashq bajarish jarayonida esa mashq bajarish tartibini ko'rsatib berish, tushuntirish, savol-javob, rahbarlik nazoratdan tashkil topadi.

Samarali boshqarish uchun o'quvchi faoliyatini tashkil etish shakllariga e'tibor qaratmog'i lozim.

O'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlash emas, balki yo'naltirish o'quv faoliyatini balki hamkorlikda tashkil etish-boshqarish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biron bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga

-o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;

-ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;

-mustaqil faoliyatni tashkil etilishi;

-tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Ta'lim tizimida yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondoshishni talab etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda :

-o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;

-o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;

-ta'limda psixolo-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqish, ehtiyojini, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatining xususiyatlarini aniqlash;

-o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish talab etiladi.

Qator pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilar munosabatini tashkil etishning asosi sanalsa, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish boshqa texnologiyani qo'llashni talab etadi. Shu sababl har bir mashg'ulotda bitta texnologiyadan emas. Balki o'quvchilar bilim har bir bosqichining o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqib tegishli texnologiyadan foydalaniladi. Shunday qilib, bitta mashg'ulotda bir nechta pedagogik texnologiya uyg'unlashtiradi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda ijtimoiy normalarga mos ongli intizomning vujudga kelishi, motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, bilim ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi ko'zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lishi bilan qimmatlidir.

Ushbu texnologiyalar jumlasiga yana didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, kommunikativ ta'lim, o'quv materiallarini (jadval va belgili) modellari hamkorlikda o'qitish, texnologiyalari kiradi.

DTS talablari va o'quv dasturlari asosida «Yerning shakli va kattaligi haqida tasavvurga ega bo'lish»ga doir sayyohat mashqi.

3. «Kichik guruhlarda ishlash» «Sayohat» mashqi.

1. Supertanker ekvatorial chizig'i bilan 170 gradus g'arbiy uzunlik kesishgan koordinatadan 270 gradus azimut yo'nalishda 60 km/soat tezlik bilan harakat

qilgan bo'lib, 15 soatdan so'ng to'xtagan. Supertanker qaysi koordinatada to'xtagan?

2. Kema 40 gradus janubiy kenglik 10 gradus sharqiy uzunlik bilan kesishgan koordinatadan 270 gradus azimut yo'nalishida 17 soat 60 km/soat tezlik bilan suzdi. Kema to'xtagan koordinatani aniqlang.

3. Kema janubiy tropik chizig'i 10 gradus g'arbiy uzunlik bilan kesishgan koordinatadan 90 gradus azimut boyicha soatiga 60 km tezlik bilan 20 soat 20 daqiqa yo'l bosishdi. Kema to'xtagan joy koordinatasini aniqlang.

4. Kema shimoliy qutb doirasi bilan 90 gradus g'arbiy uzunlik kesishgan koordinatadan 90 gradus azimut bo'ylab soatiga 60 km tezlik bilan 23,5 soat yo'l bosib to'xtadi. Kema to'xtagan koordinatani aniqlang.

Mashq jarayonida koordinatalarni aniqlash, azimutni aniqlash, kema harakatlanayotgan kengliklar, tabiiy ob'ekt, shu kenglikdagi yerning kattaligi 1 gradus yoy uzunligi kabi bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu esa DTSdagi «Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasidagi talablar ko'rsatkichlarga mos bo'lib, bashorat qilishga yo'naltiruvchi savollar orqali geografiya ta'limidagi bir butunlik, hududiy geografik tavsifining tuzilishi haqidagi bilimlar shakllantiriladi.

Quyida geografiya darslarini samarali tashkil etish va boshqarishda ayrim mavzular bo'yicha ilgor pedagogik texnologiyalarni qo'llash tavsiya etildi.

1. «O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari va maydoni» mavzusini o'rganish texnologiyalari ishtirokchilarning bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. «Charxpalak» mashqi bilimlarni mustahkamlovchi test-sinovi, amaliy topshiriqlar ustida mashq.

2. «O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari» mavzusini - «Bumerang» texnologiyasi» va o'zaro savol-javoblar orqali o'rganish.

3. «O'zbekistonning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi geografiyasi» mavzusini «jadval test», «xos xususiyatlarni ajrat» raqamli diktant mashqlari orqali o'rganish.

VI-sinfda «Dunyo okeani, uning qismlari va okean tubi reliefi» mavzusini o'qitishda kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish metodidan foydalanish.

Mazkur darsning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:
2. O'tgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.
3. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.
4. Yangi mavzuni o'rganish bo'yicha o'qituvchining axboroti.
 - a) Dunyo okeani-Yer sharining uzluksiz suvli qobig'i;
 - b) Dunyo okeanini o'rganish tarixi;
 - v) Dunyo okeanining qismlari;
 - c) Geologik tuzilishi;
 - d) Okean tubi relefining murakkab tuzilganligi.
5. O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish hamda o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarishga erishish;

Darsning matni asosida

I-guruh 1. Dunyo okeanini qachon, kimlar qanday o'rgandilar?

II-guruh 2. Dunyo okeani qanday qismlarga bo'linadi?

III-guruh 3. Dunyo okeani tagi geologik tuzilishi qanday qismlardan tashkil topgan?

IV-guruh 4. Dunyo okeani tubi reliefi qanday relief shakllaridan iborat?

V-guruh 5. Dunyo okeanidan qancha havza ajratish mumkin?

Savollarga javob topadilar tavsiflab, tushuntirib beradilar (3 daqiqa tayyorgarlik uchun, har bir taqdimmot uchun 2 daqiqa)

6. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

7. Yangi mavzuni xarita so'rov orqali qayta ishlash va yakunlash guruhlarda «Xaritadan top?» mashqi. O'quvchilar darslikda berilgan 8-rasmdan foydalanib, dunyo okeanidagi dengizlarni o'rganadilar (2 daqiqa).

Xaritadan ko'rsatish bo'yicha bahslashadilar. Har bitta javob kartochkalar bilan baholanadi. (qizil, ko'k, sariq)

8. Uyga vazifa berish:

1. Asosiy atama va tushunchalarni daftaringizga yozing.

2. Yozuvsiz xartaga okeanlarni asosiy deniz va qo'ltiq va bo'g'izlarni tushiring.

O'qituvchi faoliyatidagi rahbarlik va nazorat geografiya o'quv jarayonini samarali boshqarishda alohida jarayon bo'lib, har bir mashg'ulotning maqsadi geografik madaniyatni tarbiyalash, xaritadan mohirona foydalanish kabi mazmunga muvofiqlashtiriladi. O'quvchi faoliyatini tekshirish va baholashga qarab, o'qituvchi maktab geografiyasining maqsadi vazifasini qanchalik tasavvur etishni ham bilsa bo'ladi.

Darvoqe, maktab geografiyasining maqsadini to'g'ri va to'liq tasavvur etmay turib, ta'lim-tarbiyada to'la muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Ma'lumki, dasturga muvofiq maktab geografiyasi o'quvchilarga o'rta geografik ma'lumot berishga mo'ljallangan. O'rta geografik ma'lumot zaminida esa o'quvchilarni muayyan grafik tasavvuri va tushunchalar bilan qurollantirish ularni mustaqil geografik bilim egallash taqazo etgan ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, geografik mushohada yuritish qobiliyatlarini o'stirish va nihoyat barkamol insonni tarbiyalash vazifalari yotadi.

Ta'lim jarayonida ana shu vazifalar hal etilar ekan o'quvchilar faoliyatini rahbarlik va nazorat qilish, baholash unga qaratilishi kerak.

O'quvchining o'qishga va hatto o'qituvchiga bo'lgan munosabati ham ko'p jihatdan uning o'quv faoliyatini naqadar haqqoniy nazorat qilinishga bog'liq. Nazoratning eng haqiqiy va to'g'ri turi o'z-o'zini nazorat qilish hisoblanadi. Bu pedagogik texnologiyani barcha ishtirokchilari, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilarga tegishli. Lekin ma'lumki, ko'pincha odamlarda o'z-o'zini qat'iy nazorat qilish odatga aylanmagan, buning uchun ko'p hollarda iroda yetishmaydi.

Shuning uchun o'quvchi faoliyatini nazorat qilish o'qituvchi va ota-onalar tomonidan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Bunda nazorat uchun haddan ortiq vaqt sarflamaslika e'tibor berish, o'qituvchining asosiy ish vaqti nazorat uchun emas, o'quvchilarga ko'proq bilimlar

berishga sarflanishiga erishish lozim. Nazoratning yangi variantii reyting tizimi amaliyotda o'zining afzalligini ko'rsatmoqda.